


**BUILDERS OF THE FUTURE**

journal homepage:  
<https://kelajakbunyodkori.uz/>

**THE USE OF GREETING AND WELL-BEING INQUIRY VOCABULARY IN PERSIAN IN EVERYDAY AND FORMAL STYLES**

**Mukhlisa Almatova**

*“Higher School of Iranian and Afghan Studies”*

*2nd-year student, Persian-English group*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

[almatovamuxlisexonum06@gmail.com](mailto:almatovamuxlisexonum06@gmail.com)

*Tashkent, Uzbekistan*

**S. Sultonkhodjayeva**

*Senior Lecturer,*

*Higher School of Iranian and Afghan Studies, TSUOS*

*Tashkent, Uzbekistan*

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** formal greeting, informal greeting, information, official letter.

**Received:** 25.03.26

**Accepted:** 26.03.26

**Published:** 27.03.26

**Abstract:** This article analyzes greeting and well-being inquiry units used in Persian in both formal and informal speech styles. The study examines greeting forms employed in daily oral communication, formal meetings, written letters, and mass media. The formulas of address in official letters, the introductory vocabulary used in organizational and institutional information, as well as simple greeting units in informal conversations are compared. It is also emphasized that some greeting forms do not strictly belong only to formal or informal groups, but may vary depending on the situation, the relationship between interlocutors, and the speech tone. The results of the study contribute to a deeper understanding of communication culture and speech etiquette in Persian.

**FORS TILIDA SALOMLASHUV VA HOL-AHVOL SO‘RASH LEKSIKASINING KUNDALIK VA RASMIY USLUBDA QO‘LLANILISHI**

**Mukhlisa Almatova**

*2-kurs fors-ingliz guruhi talabasi*

*“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

[almatovamuxlisexonum06@gmail.com](mailto:almatovamuxlisexonum06@gmail.com)

Toshkent, O'zbekiston

**S. Sultonxodjayeva**

*TDSHU, "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi katta o'qituvchisi*

Toshkent, O'zbekiston

---

## MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit so'zlar:** rasmiy salomlashuv, norasmiy salomlashuv, axborot, rasmiy xat.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fors tilida qo'llaniladigan salomlashuv va hol-ahvol so'rash birliklari rasmiy va norasmiy nutq uslubda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida kundalik og'zaki muloqot, rasmiy uchrashuvlar, yozma xatlar hamda ommaviy axborot vositalarida qo'llaniladigan salomlashuv shakllari o'rganiladi. Rasmiy maktublardagi murojaat formulalari, tashkilot va idoralar axborotlarida qo'llaniladigan kirish leksikasi hamda norasmiy suhbatlardagi oddiy salomlashuv birliklari qiyosiy ravishda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ayrim salomlashuv shakllari qat'iy ravishda faqat rasmiy yoki faqat norasmiy guruhga kirmasligi, balki vaziyat, suhbat ishtirokchilarining o'zaro munosabati va nutq ohangiga qarab turlicha tus olishi ta'kidlandi. Tadqiqot natijalari fors tilida muloqot madaniyati va nutqiy odob tizimini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

---

## УПОТРЕБЛЕНИЕ ЛЕКСИКИ ПРИВЕТСТВИЯ И ВОПРОСОВ О САМОЧУВСТВИИ В ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ В ПОВСЕДНЕВНОМ И ОФИЦИАЛЬНОМ СТИЛЯХ

**Мухлиса Алматова**

*Студентка 2 курса, персидско-английская группа*

*Высшая школа иранистики и афганистики*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

[almatovamuxlisexonum06@gmail.com](mailto:almatovamuxlisexonum06@gmail.com)

*Ташкент, Узбекистан*

**С. Султонходжаева**

*Старший преподаватель*

*Высшая школа иранистики и афганистики, ТГУВ*

*Ташкент, Узбекистан*

---

## О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** официальное приветствие, неофициальное приветствие, информация, официальное письмо.

**Аннотация:** В данной статье анализируются единицы приветствия и вопросов о самочувствии, используемые в персидском языке в официальном и неофициальном стилях речи. В исследовании рассматриваются формы приветствия, применяемые в повседневной устной коммуникации, на официальных встречах, в письменных письмах и в средствах массовой

---

информации. Сравняются формулы обращения в официальных письмах, вводная лексика, используемая в информации организаций и учреждений, а также простые единицы приветствия в неофициальных разговорах. Также отмечается, что некоторые формы приветствия не строго относятся только к официальной или только к неофициальной группе, а могут изменяться в зависимости от ситуации, взаимоотношений участников общения и интонации речи. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию культуры общения и системы речевого этикета в персидском языке.

**Kirish.** Til jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u insonlar o‘rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi asosiy vosita hisoblanadi. Har bir tilda mavjud bo‘lgan salomlashuv birliklari esa muloqotning boshlanish nuqtasini tashkil etadi va suhbat ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatni belgilab beradi. Fors tilida salomlashuv shakllari boy va rang-barang bo‘lib, ular vaziyat, ijtimoiy maqom, yosh, kasbiy muhitga qarab turlicha qo‘llaniladi. Zamonaviy fors tilida salomlashuv birliklari rasmiy va norasmiy muhitda turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Rasmiy uchrashuvlar, yozma maktublar, tashkilot va idoralar tomonidan beriladigan axborotlarda qo‘llaniladigan salomlashuvlar bilan kundalik og‘zaki nutqda ishlatiladigan oddiy salomlashuv iboralari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Shu bilan birga, ayrim birliklar vaziyatga qarab har ikki muhitda ham qo‘llanishi mumkinligi kuzatiladi.

Quyida biz norasmiy uslubda misollarimizni ko‘rib chiqamiz:

سلام - eng oddiy, keng tarqalgan salomlashuv turi. Asosan do‘stlar va oila davrasida qo‘llaniladi. Yuzma-yuz chat yoki telefon suhbatlariga mos. Eronliklar asosan gaplarini shu so‘z bilan boshlaydi.

Salom. Yaxshimisan?	سلام. خوبی؟
Salom. Ahvoling qanday?	سلام. حالت چطورە؟
Salom do‘stim! Nima gap ?	سلام رفیق! چه خبر؟
Hey! Qalaysan do‘stim?	هی! چطورى دوست؟
Salom. Senda nima gaplar?	سلام. چه خبر ازت؟
Salom. Bah-bah, xush kelibsan!	سلام. به به خوش اومدی!
Xursandlik olib kelding!	صفا آوردی!
Salom. Ishlar qalay?	سلام. اوضاع چطورە؟
Salom. Seni ko‘rganimdan xursandman.	سلام. خوشحالم می بینمت
Salom! Kuning qanday o‘tdi?	سلام! روزت چطور بود؟

Yuqorida qayd etilgan norasmiy salomlashuvlar do‘stlar, tengdoshlar yoki oilaviy muhitda ishlatiladigan, iliq, samimiy va rasmiy odob qoidalariga qat‘iy bog‘lanmagan iboralardir. Ular kundalik og‘zaki muloqotga xos bo‘lib, qisqa, sodda va tez talaffuz qilinadigan shaklda qo‘llanadi.

Mazkur birliklar suhbatdoshlar o'rtasidagi yaqinlik va ijtimoiy masofaning qisqaligini ifodalaydi. Masalan, “حالت چطوره؟”, “هی! چطورى دوست؟”, “خوبى؟” kabi shakllar struktur jihatdan elliptik (to'liq bo'limgan) gaplar hisoblanadi. Ular to'liq sintaktik modelga ega bo'lmasa-da, kommunikativ vazifani to'liq bajaradi. Masalan, “خوبى؟” shakli aslida “حال تو خوب است؟” to'liq konstruksiyaning qisqartirilgan ko'rinishidir. Bu yerda ega (تو) va bog'lama tushirib qoldirilgan. Xuddi shuningdek, “حالت چطوره؟” iborasining yozma, me'yoriy shakli “حال تو چطور است؟” tarzida bo'ladi. Bu yerda bog'lama hisoblanadi. Og'zaki nutqda esa u fonetik reduksiya natijasida “ه” ko'rinishiga o'tadi (چطور است → چطوره). Mazkur hodisa fors tilining og'zaki uslubiga xos bo'lib, nutq iqtisodiyliги tamoyili bilan izohlanadi. Tezkor muloqot jarayonida ortiqcha sintaktik elementlar (ega yoki bog'lamaning to'liq shakli) qisqartiriladi, biroq ularning grammatik funksiyasi saqlanib qoladi. Pragmatik nuqtai nazardan, “خوبى؟” yoki “حالت چطوره؟” kabi savol shaklidagi salomlashuvlar semantik jihatdan hol-ahvol so'rashni bildirsa-da, funksional jihatdan ular aloqa o'rnatish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ya'ni ularning asosiy vazifasi axborot olish emas, balki ijtimoiy aloqani o'rnatish va muloqotni boshlashdan iborat.

“چه خبر ازت؟”, “اوضاع چطوره?” birliklari esa diskursni kengaytiruvchi formulalar bo'lib, suhbatni davom ettirish va suhbatdoshni faol nutqqa jalb qilish funksiyasini bajaradi. Bu yerda “ازت” shakli ikkinchi shaxs birlikni bildiradi va ijtimoiy yaqinlik darajasini ko'rsatadi.

“خوش اومدى” shakli rasmiy “خوش آمدید” variantining og'zaki va samimiy ko'rinishidir. Bu yerda ikki grammatik farq kuzatiladi: “آمدید” (ikkinchi shaxs ko'plik, hurmat shakli) o'rniga “اومدى” (ikkinchi shaxs birlik) qo'llanadi; “آمد” fe'lining og'zaki nutqda “اومد” tarzida talaffuz qilinishi fonetik o'zgarish hisoblanadi. Mazkur o'zgarishlar fonetik soddalashuv bilan bir qatorda ijtimoiy masofaning qisqarishini ham ifodalaydi.

“به به، خوش اومدى، صفا آوردى” mazkur birliklar alohida leksik struktura bo'lsa-da, so'zlashuvda ular murakkab salomlashuv formulasi sifatida ketma-ket birga qo'llanadi va yagona funksiyani bajaradi. Masalan, “Bah-bah, Xush kelibsana, kelishingni kutib turgan edim”.

Rasmiy salomlashuv uslubi esa suhbat ishtirokchilariga hurmatni ko'rsatish, nutqni boshlash va ularning maqomini aks ettirish maqsadida ishlatiladi. Ular turli rasmiy vaziyatlarda uchraydi, jumladan, ommaviy axborot vositalarida (televideniye, radio, matbuot bayonotlari) va rasmiy yozma muloqotda (xatlar, email va boshqa rasmiy hujjatlarda). Shu tarzda salomlashuv auditoriya yoki murojaat qilinayotgan shaxsga hurmatni bildiradi va nutqning rasmiy ohangini belgilaydi.

Fors tilida ommaviy axborot, matbuot bayonotlarida tez-tez uchraydigan salomlashish iboralari quyidagilar:

Mehribon Parvardigor nomi bilan sizlarga salom, hurmatli hamrohlar	به نام پروردگار مهربان، سلام بر شما همراهان محترم <sup>1</sup>
Sizlarga salom, xayrli tong.	سلام بر شما، صبح بخیر <sup>2</sup>
Mehribon va rahmdil Xudoning nomi bilan, aziz do'stlarim, salom.	به نام خداوند بخشنده و مهربان، دوستان عزیزم سلام <sup>3</sup>
Hurmatli tomoshabinlarga salom.	سلام به بینندگان گرامی <sup>4</sup>
Xonimlar va janoblar, sizlarga salom.	خانم و آقایان درود بر شما <sup>5</sup>
Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan, hurmatli tomoshabinlar xayrli kun	بسم الله الرحمن الرحيم، بینندگان محترم، وقت شما بخیر

Axborot dasturlarida rasmiy salomlashuv iboralari odatda tinglovchilar yoki tomoshabinlarga hurmat bilan murojaat qilish, dastur ohangini rasmiy va tartibli boshlash maqsadida ishlatiladi. Masalan, "به نام پروردگار مهربان، سلام به شما" va "به نام خداوند بخشنده و مهربان، دوستان عزیزم سلام" so'z birliklari leksik va sintaktik jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularning pragmatik va stilistik funksiyalari sezilarli darajada farq qiladi. Birinchisida Yaratganni ulug'lash ifodasi ("به نام خداوند بخشنده و مهربان") auditoriyaga rasmiy hurmatni bildiradi, ammo "دوستان عزیزم" murojaati tinglovchiga nisbatan iliqlik va samimiylilik qo'shadi; bu yerda "عزیزم" sifati "دوستان" otini aniqlab, auditoriyaga nisbatan ijtimoiy maqomni yumshatadi va suhbatni iliq tarzda boshlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu ibora radio va televideniye dasturlarida ko'p uchraydi, u yerda rasmiy ohang bilan do'stona muloqotni uyg'unlashtirish muhimdir. Ikkinchi iborada esa "به نام پروردگار مهربان سلام بر شما، همراهان محترم" — Yaratganni ulug'lash ifodasi ("به نام پروردگار مهربان") bilan birga rasmiy murojaat ("همراهان محترم") mavjud bo'lib, auditoriyaga qat'iy rasmiylikni ifodalaydi. Bu yerda "محترم" sifati "همراهان" otini aniqlaydi va tinglovchiga nisbatan hurmatni mustahkamlaydi, samimiylilik elementi minimal bo'lib, rasmiy dastur, matbuot bayonoti yoki axborot dasturlarida ishlatiladi.

"بینندگان" otini birikmasida "گرامی" sifati izofa konstruktsiyasi orqali "بینندگان" otini belgilab, adresatga nisbatan hurmat va e'tibor semantikasini oshiradi. Bu sifat rasmiy murojaat formulasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, tinglovchining ijtimoiy maqomini yuqori darajada ta'kidlaydi va nutq ohangini rasmiylashtiradi. Shu tarzda rasmiy salomlashuvlar leksik jihatdan hurmatni ifodalovchi komponentlar bilan boyitilgan bo'lib, auditoriyaning maqomiga mos ravishda nutqni tartibga soladi.

Fors tilida rasmiy xatlarning kirish qismida asosan quyidagi salomlashuv so'z birliklari ishlatiladi

Salom, hurmat bilan sizga shuni ma'lum qilaman.	با سلام، احتراماً به استحضار عالی می رساند
Salom taqdim etaman.	با عرض سلام

Salom va minnatdorchilik bilan.	با سلام و عرض تشکر
Salom va mehnatingiz uchun rahmat(charchamang).	با سلام و خسته نباشید
To‘liq hurmat bilan.	با کمال احترام
Assalomu alaykum, hurmat bilan.	سلام علیکم با احترام
Salom bilan sizga ma’lum qilaman.	با درود به استحضار می رساند

Ushbu iboralar fors tilidagi rasmiy xatlarning kirish qismida qo‘llanilib, adresatga nisbatan hurmat va ehtiromni ifodalaydi. Masalan, “با سلام، احتراماً به استحضار عالی می رساند” iborasi rasmiy xatning kirish qismida ishlatiladigan klassik salomlashuv formulasi bo‘lib, uning leksik tarkibi uch qismdan iborat: “با سلام” – salomlashuv, “احتراماً” – hurmat bilan, “به استحضار عالی می رساند” – mazmuni adresatga rasmiy ravishda yetkazish. Leksik jihatdan, «احتراماً» so‘zi adresatga nisbatan ijtimoiy maqomni ta’kidlaydi, ya’ni u faqat oddiy salomlashuv emas, balki yuqori lavozimdagi shaxsga yo‘naltirilgan rasmiy hurmatni bildiruvchi birlikdir. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, deyarli barcha rasmiy xatlarda hurmatni bildiruvchi komponent — masalan, “با احتراماً” kabi birliklar — muntazam qo‘llaniladi. Bu holat fors tilidagi rasmiy yozma uslubning muhim xususiyati bo‘lib, unda adresatning maqomi va ijtimoiy mavqeiga alohida e’tibor qaratiladi. Shuning uchun rasmiy xatlarda salomlashuv oddiy “سلام” bilan cheklanib qolmaydi, balki hurmat ifodalovchi qo‘shimcha birliklar bilan birga keladi. Ya’ni rasmiy salomlashuv shakllari fors tilida shunchaki kirish iborasi emas, balki yozma nutq madaniyatining ajralmas va me’yoriy qismi hisoblanadi.

Ikkala holat ham rasmiy salomlashuv turiga kiradi, farqi shundaki, axborotdagi salomlashuv omma yoki auditoriyaga murojaat qilsa, xatdagi salomlashuv esa shaxs yoki rasmiy idoraga yo‘naltiriladi. Har ikkala shakl ham hurmat, tartib va rasmiy ohangni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ba’zi fors tilidagi salomlashuv birliklari funksional jihatdan ko‘p qatlamli bo‘lib, ular ham norasmiy, ham rasmiy kommunikativ vaziyatlarda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, “سلام”, “صبح بخیر”, “عصر بخیر” birliklari semantik jihatdan neytral va universal salomlashuv formulalari hisoblanadi. Ularning rasmiy yoki norasmiy tus olishi leksik tarkibidan ko‘ra ko‘proq pragmatik kontekst va nutq vaziyatiga bog‘liq.

Masalan:

(norasmiy) سلام! صبح بخیر. حالت چطوره؟

(rasmiy) خانم‌ها و آقایان، اعضای محترم رسانه‌های بین‌المللی، عصر بخیر

(Hurmatli xonimlar va janoblar, xalqaro ommaviy axborot vositalari a’zolari, xayrli kun.)

— Bu Parijdagi matbuot anjumanida ishlatilgan rasmiy salomlashuv.

Xulosa qilib aytganda, fors tilidagi salomlashuv va hol-ahvol so‘rash leksikasi milliy nutq madaniyatining muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, ular vaziyatga qarab turlicha qo‘llaniladi, xususan ayrim so‘zlar, masalan, “سلام”, ham rasmiy, ham norasmiy kontekstlarda uchraydi. Norasmiy og‘zaki muloqotda eng ko‘p ishlatiladigan birliklar — “خوبی؟”, “حالت چطوره؟” kabilar qisqa, sodda va

talaffuz uchun qulay bo‘lib, do‘stona va samimiy ohangni beradi. Shu bilan birga, rasmiy salomlashuvlarda, xususan ommaviy axborot vositalari yoki rasmiy xatlarda, so‘z birliklari kengroq, struktur jihatdan boy va tinglovchining ijtimoiy maqomini hisobga oluvchi shakllarda ishlatiladi. Masalan, “به نام خداوند بخشنده و مهربان، دوستان عزیزم سلام” yoki “سلام به بینندگان گرامی” kabi iboralar auditoriyaga hurmat va ehtiromni bildiradi, nutq ohangini rasmiylashtiradi va taarof an’anasi elementini o‘z ichiga oladi. Shu tarzda, fors tilidagi salomlashuvlar moslashuvchan bo‘lib, og‘zaki nutqda qulaylik va tezlikni ta’minlasa, rasmiy vaziyatlarda hurmat, tartib va o‘zaro masofani ifodalaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. رضامراد صحرائی. آموزش کاربرد ی واژه .تهران، بنیاد سعدی، 2021
2. اکبر مرتضی پور. راهنمای کامل نامه نگاری .تهران، 1382
3. <https://www.bishtarazyek.com/how-to-greet-better/>
4. <https://roozaneh.net/fun/sms/%d8%ac%d9%85%d9%84%d8%a7%d8%aa-%d8%a7%d8%ad%d9%88%d8%a7%d9%84-%d9%be%d8%b1%d8%b3%db%8c/>